

beradi. Bu esa turizm bozori uchun samarali yondashuv va strategiyalarni aniqlashga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldag'i "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son Qonuni. Manba: <https://lex.uz/docs/-4428097>

2. Yo'ldosheva L.T. Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning xorij tajribasi. // "Экономика и социум", №7(110), 2023. - 371 b.

## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'INING O'RNI VA UNDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI IQTISODIY- STATISTIK TAHLILI**

**Zakirova Umida Maxamadaminovna**  
*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya  
va sport Universiteti,  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil izlanuvchisi,  
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)*

Bugungi kunda dunyoda global beqarorlik holatining yuzaga kelishi oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni o'rganishga alohida e'tibor qaratishni va bu borada kengaytirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borishni taqozo etmoqda. Mazkur tadqiqotlarda agrar sektorning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, aholi soni va talablari o'sishini qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan mutanosibligini ta'minlash, agrar sektorni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarish jarayonlarini ixtisoslashtirish, zamonaviy innovatsion texnologiyalar va uslublarni qo'llash orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirish zaruriyatini taqozo etadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, jahon aholisining so'nggi 20 yil ichida qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabi yiliga o'rtacha 5-7 foizga o'sib bormoqda<sup>33</sup>.

Globallashuv jarayonlari Respublikamizning tashqi iqtisodiy aloqalari va qishloq ho'jaligining raqobatbardoshligini oshirishga jahon xo'jaligi ko'rsatadigan ta'sirni to'liqroq hisobga olish zarurligini ko'rsatdi. Jahon koronovirus pandemiyasi asoratlaridan hali to'la qutilmagan sharoitda qishloq ho'jaligi mahsulotlari eksportini ko'paytirish, tashqi bozorlarga chiqish davlat tomonidan muvofiqlashtirilishi muammosi o'ta muhim masalalardan biridir<sup>34</sup>.

Qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati O'zbekistonning iqtisodiyoti va aholisining farovonligi uchun ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakat

<sup>33</sup>[http://www.uz.undp.org/content/dam/uzbekistan/docs/Publications/economicgovernance/Improving\\_Productive\\_and\\_Export\\_Potential/un\\_uzb\\_Improving\\_Productive\\_%20and\\_Expo%20Potential.pdf](http://www.uz.undp.org/content/dam/uzbekistan/docs/Publications/economicgovernance/Improving_Productive_and_Export_Potential/un_uzb_Improving_Productive_%20and_Expo%20Potential.pdf)

<sup>34</sup> Abdulloev A.J.Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida eksport salohiyatini oshirishda agroklasterlarning o'rni va ahamiyati. Central Asian academic journal of scientific research. Issue - 5, 2022.

yalpi ichki daromadining uchdan bir qismidan ortiqrog'i qishloq xo'jaligining hissasiga to'g'ri keladi. Sohada 3,5 milliondan ortiq aholi ish bilan band, va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chet elga sotishdan tushgan tushumlar O'zbekistonning umumiyligi eksport daromadlarining 25 foizigacha tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasi shu bilan birga butun mamlakat bo'y lab ko'plab qishloqlar va kichik shaharlarning iqtisodiy o'zagi hisoblanadi, zero u joylarda qishloq xo'jaligidan tashqari boshqa muqobil daromad manbalari mavjud emas.

O'zining olib borgan tadqiqotlari natijasida O'zbekiston Respublikasi agrar tizimiga davlat tomonidan katta subsidiya va kredit mablaglari ajratilayotganiga qaramasdan ushbu soha muammolarini xal etishda yetarli darajada ishlar olib borilmayotganligini, agrar sektorda kichik va xususiy tadbirkorlik roli va axamiyatini oshirish xamda ushbu sektor rivojlanishida innovatsion yondauv zarurligini bildirib o'tgan<sup>35</sup>.

Q. Berdiqulovning "Qishloq xo'jalikida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishni statistik tahlili" nomli ilmiy maqolasida qishloq xo'jalikni yanada rivojlantirish bo'yicha keyingi yilda qabul qilingan me'yoriy hujjatlar va uning amaliyotga joriy etish jaroyonlari, qishloq xo'jalikda amalga oshirilayotgan uslubiyotidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan<sup>36</sup>. Rossiya FA akademiyasining akademigi A.N. Anishenko rahbarligida<sup>37</sup> olib borilgan tadqiqotlarda Rossiya Federatsiyasi va boshqa xorijiy davlatlarda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va agrar sektor tarmoqlarini sun'iy va aqli intellekt orqali boshqariladigan strategik rejalashtirishga yondashuv asoslangan. Shuningdek, tadqiqotda qishloq xo'jaligini aqli texnologiyalarni qo'llash orqali yo'nalishlar tahlil qilingan hamda uning rivojlanish tendensiyalariga va raqobatbardoshligiga baho berilgan.

O'zbekiston chet elliklarga o'zining Buyuk Ipak Yo'li bo'y lab joylashgan qo'hna shaharlari bilan, va albatta, o'z paxtasi va meva-sabzavot mahsulotlari bilan mashhur. Shu sababli qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasini yanada rivojlantirish mamlakatga kelgusida yanada ko'proq foyda keltirishi kutilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda yetishtirilayotgan 80 turdan ortiq qishloq xo'jaligi mahsulotlari dunyoning 60 dan ortiq mamlakatiga eksport qilinmoqda. Bunda meva-sabzavotlar va dukkakli mahsulotlarning eksport hajmi oxirgi yetti yilda qariyb 2 barobarga oshgan. Albatta, bu kabi natijalarga erishishda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan fermer xo'jaliklari, agroklasterlar va meva-zabzavotchilik klasterlarining o'rni beqiyos. O'zbekistonda agrar tarmoqni rivojlantirish uchun yillar davomida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu islohotlarning samarasini sifatida qishloq xo'jaligining asosiy

<sup>35</sup> Ruzmetov D.I.O'zbekistonda agrar sektor tarkibi va rivojlanish tamoillari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2021 yil. 172-180 b.

<sup>36</sup> Berdiqulov Q.G.'Qishloq xo'jalikida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishni statistik tahlili //O'zbekiston statistik ahborotnomasi ilmiy elektron jurnali, 2021 yil, 1-son.

<sup>37</sup> Анищенко А.Н. «Умное» сельское хозяйство как перспективный вектор роста аграрного сектора экономики России // Продовольственная политика и безопасность. – 2019. – Том 6. – № 2. – С. 97-108.

ko'rsatkichlarida kuzatilayotgan o'zgarishlar bilan keltirib o'tish mumkin. Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda juda katta iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari kuzatilmoxda. Xususan, o'tgan yil yakunlariga ko'ra, mamlakatimizda YaIM hajmi joriy narxlarda 1 066 569,0 mlrd. so'mni tashkil etib, bu 2022 yil bilan taqqoslaganda 6,0 % ga o'sganligini kuzatishimiz mumkin. Shu bilan birga ushbu yilda agrar tarmoqda yaratilgan mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarning umumiyligi hajmi 426,3 trln. so'mni, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarning o'tgan yilga nisbatan o'sishi – 117,6% (411,6 trln. so'm)ga, qishloq xo'jaligi mahsuloti 117,2% (404,6 trln. so'm), o'rmon xo'jaligi – 108,3% (10,4 trln. so'm), baliqchilik xo'jaligi – 134,4 (4,3 trln. so'm) oshganligi ushbu tarmoqdagi jiddiy o'sish sura'ti deb e'tirof etish mumkin.

### Xulosa

Bugungi kunda butun dunyoda agrar sohani rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholining sifatlari meva-sabzavotlarga bo'lgan talabini qondirish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bois, keyingi yillarda mamlakatimizda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qulay agrobiznes muhit va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, soha boshqaruvida investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish hamda qishloq xo'jaligida ilm-fan yutuqlarini joriy qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalgalash oshirilmoqda.

Xususan, agrar sohada bozor munosabatlari bosqichma-bosqich joriy qilinyapti. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishslash va sotish bo'yicha subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari mustahkamlanib, sohaga investitsiyalar keng jalb qilinmoqda. Ayniqsa, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, resurs tejamkor texnologiyalar hamda sohaga ilmiy yondashuvlarning tatbiq etilishi yer unumdarligi va hosildorligini oshirmoqda.

### Adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrda qo'shlangan "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF- 5853- sonli Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

2.[http://www.uz.undp.org/content/dam/uzbekistan/docs/Publications/economicgovernance/Improving Productive and Export Potential/un\\_uzb\\_Improving\\_Productive\\_and\\_Export\\_Potential.pdf](http://www.uz.undp.org/content/dam/uzbekistan/docs/Publications/economicgovernance/Improving Productive and Export Potential/un_uzb_Improving_Productive_and_Export_Potential.pdf)

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60 sonli Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

4.O'rinnov A.A. Qishloq xo'jaligi tarmog'i O'zbekiston iqtisodiyotining drayveri. International scientific-practical conference actual issues of agricultural development: problems and Solutions. JUNE 6-7, 2023.